

SHARQSHUNOSLIK  
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ  
ORIENTAL STUDIES

2

2025

ILMIY JURNAL  
ISSN 2181-8096



**SHARQSHUNOSLIK**  
**ВОСТОКОВЕДЕНИЕ**  
**ORIENTAL STUDIES**

---

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО  
УНИВЕРСИТЕТА ВОСТОКОВЕДЕНИЯ

SCIENTIFIC JOURNAL OF THE TASHKENT STATE UNIVERSITY  
OF ORIENTAL STUDIES

**№ 2, 2025**

**MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS****ADABIYOTSHUNOSLIK// ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ // LITERATURE**

- Abdurashidova N.* Yangi davr Vyetnam hikoyanavisligining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari 3  
*Abduvaxidov A.* Sarvepalli Radhakrishnanning falsafiy-teologik qarashlari ..... 16  
*Ashurova M.* Xitoy adabiyotida esse janrining paydo bo‘lishi va taraqqiyoti ..... 29

**TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK //**  
**ЯЗЫКОЗНАНИЕ И ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ //**  
**LINGUISTICS AND STUDY OF TRANSLATION**

- Закурова У.* Англицизмы в лингвистической литературе языка урду ..... 40  
*Tursunbayeva Z.* Tarixiy asarlar tarjimasida o‘lchov birliklarining ifodalanishi ..... 51  
*Karimova X.* Overview and thinking on the development of modern chinese terminology .. 63  
*Yusupova G.* Koreys va o‘zbek lingvomadaniyatida xayrlashish nutq aktining ifodalanishi 79  
*Fatxutdinova I.* Tarjimada semantik ekvivalentlik darajasining ahamiyati ..... 92  
*Fayzullayeva M.* Xitoy tilida gastronomik metaforalarning klassifikatsiyasi ..... 103  
*Ismoilova F.* Ingliz olam milliy lisoniy manzarasida islomiy istilohlar tarjimasini ..... 115

**MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK //**  
**ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ И ИСТОРИОГРАФИЯ //**  
**SOURCE STUDIES AND HISTORIOGRAPHY**

- Turdiyeva D.* Zamonaviy diniy jarayonlar va yangi diniy oqimlar ..... 125  
*Ergashev J.* Qadimgi turk davlatchiligida “Kichik xoqonlar” boshqaruv institutining shakllanishi va rivojlanishi ..... 137

**XALQARO MUNOSABATLAR VA SIYOSAT //**  
**МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ПОЛИТИКА //**  
**INTERNATIONAL RELATIONS AND POLITICS**

- Xodjimuratova D.* Eron siyosiy tizimida teokratik institutlarning o‘rni ..... 146  
*Shukurov A.* O‘zbekiston respublikasi va Saudiya arabistoni o‘rtasidagi hamkorlikning yangi bosqichi va rivojlanish istiqbollari ..... 162  
*To‘ychiyeva R.* Yangi davrda Hindiston-yaqin sharq aloqalari: energetik hamkorlik va geosiyosiy dinamika ..... 175  
*Bo‘ronov S.* Qo‘shqaruv kanalining Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligiga ta‘sirini ..... 186

**FALSAFA // ФИЛОСОФИЯ // PHILOSOPHY**

- Иззетова Э.* Парадигма постконфуцианства Фэн Юланя в контексте философского дискурса ..... 195  
*Soysal D.* Magtymguly Pyragy’s Philosophy and Its Relevance to International Relations .. 209



## QO'SHTEPA KANALINING MARKAZIY OSIYO MINTAQAVIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI

**SUHROB BO'RONOV**

*Dotsent, s.f.f.d. (PhD), TDSHU*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Afg'onistonda qurilayotgan Qo'shtepa kanali va uning Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligiga ta'siri masalalari tahlil etiladi. Shuningdek, mintaqaviy xavfsizlikka tahdid tug'diruvchi suv bilan bog'liq boshqa ehtimoliy omillar ham tadqiq etiladi.

**Kalit so'zlar:** Mintaqaviy xavfsizlik, Amudaryo, Qo'shtepa kanali, "Tolibon 2.0", Murg'ob va Tejen daryosi, Qoraqum kanali.

**Аннотация:** В статье анализируются вопросы строительства канала Коштепа в Афганистане и его влияние на региональную безопасность в Центральной Азии. Также изучены другие потенциальные факторы, связанные с водными ресурсами, которые представляют угрозу региональной безопасности.

**Ключевые слова:** Региональная безопасность, Амударья, канал Коштепа, «Талибан 2.0», реки Мургаб и Теджен, Каракумский канал.

**Abstract:** This article analyzes the issues of the construction of the Qoshtepa Canal in Afghanistan and its impact on regional security in Central Asia. It also examines other potential water-related factors that pose a threat to regional security.

**Key words:** Regional security, Amu Darya, Qoshtepa Canal, "Taliban 2.0", Murghab and Tejen rivers, Karakum Canal.

### INTRODUCTION/ ВВЕДЕНИЕ/KIRISH

XXI asrning 20-yillaridan e'tiboran xalqaro xavfsizlikka nisbatan ilgari amal qilgan an'anaviy qarashlar va chora-tadbirlar zamon talablariga yetarli darajada javob bera olmayotgani bugungi kunning haqiqatidir. Sir emaski, dunyoning turli nuqtalarida davlatlarning suvereniteti, hududiy yaxlitligi va uning ichki ishlariga aralashmaslik kabi qat'iy belgilangan xalqaro tartib-qoidalar jahon siyosatining ayrim yirik aktorlari tomonidan qo'pol ravishda buzilmoqda. Shuningdek, xavfsizlikning "bo'linmaslik" tamoyili ham hozirga kelib "bo'linayotgani" ogohlik qo'ng'irog'i sifatida chalinmoqda. Tan olish lozimki, Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizlik tizimi jiddiy transformatsiyaga duch kelmoqda. XX asrning 90-yillarida "Tolibon" harakati Kobulda boshqaruvga kelishi bilan vujudga kelgan vaziyat Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligiga chinakam tahdid omiliga aylangan bo'lsa, bugungi kunda bunday qarashlar o'zgarishlarga uchrayotganini guvohi bo'lishi mumkin.

XXI asrning bo'sag'asida terrorism balosiga qarshi kurashda Markaziy Osiyo davlatlari AQSh madadiga tayangan edi. Amerikaning Markaziy Osiyo mintaqasi



va Afg'onistonda harbiy mavjudligining o'rnatilishi va 20 yil davomida "Katta Markaziy Osiyo" konsepsiyasini amalga tadbiiq etishga qaratilgan urinishlari mintaqa xavfsizlik tizimini "qayta qurish"ga jiddiy ishora qilgan edi. Shu o'rinda professor R.Alimovning amerikalik siyosatchi va diplomat Genri Kissenjerdan iqtibos keltirgan holda ta'kidlagan fikrlarini eslatib o'tish joizdir: "Terrorizmga qarshi urushda gap faqat terroristlarni kuzatish haqida ketmaydi. Gap shundaki, bu, avvalo, jahon tizimini qayta qurish uchun favqulodda foydali imkoniyatni qo'ldan boy bermas fursatidir". Shak-shubhasiz, bunday "qayta qurish" aynan Afg'onistondan boshlangan edi va bu jarayonlar bir qator kuch markazlarining geostrategik manfaatlari jamlangan Markaziy Osiyo va uning atrofidagi xalqaro munosabatlar tizimi transformatsiyaga bevosita ta'sir ko'rsatdi"[1]. 2021-yil avgust oyi oxiridan e'tiboran AQSh harbiy kuchlarining Afg'oniston hududini rasman tark etishi natijasida Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizlik tizimini "qayta qurish"ning yangi davri boshlandi. Ustiga ustak, Markaziy Osiyodagi xavfsizlik arxitekturasining kafolatli himoyachisi sifatida o'zini doimo ko'rsatib keladigan Rossiya Federatsiyasi 2022-yil Ukrainada boshlangan urushga butun diqqat-e'tiborini qaratib kelmoqda. Shunday sharoitda, ayniqsa, Afg'onistonda "Tolibon" boshqaruvi qayta o'rnatilgan strategik noaniqlik holatida Markaziy Osiyo davlatlari uchun mintaqaviy xavfsizlikning yangi tizimini mustaqil tarzda barpo etish zarurati paydo bo'ldi. Siyosiy fanlar doktori, dotsent S.Ubaydullayeva xulosa qilgani kabi "2021-yil avgust oyida hokimiyat tepasiga "Tolibon" muvaqqat hukumati kelganidan keyin mintaqaviy xavfsizlik bo'yicha kompleks o'zaro bog'liqlik tizimida mavhum holat yuzaga keldi. Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik bo'yicha o'zaro bog'liqlik tizimini shakllantirishga hamda bu jarayonda Afg'onistonning roliga munosabat va yondashuvlarda noaniqlik mavjud. Holbuki, Afg'oniston Janubiy Osiyodagi xavfsizlik tizimining muhim bo'g'ini hisoblanadi"[2]. Garchi XX asrning 90-yillaridagi kabi Markaziy Osiyo davlatlari uchun o'ta jiddiy tahlil vaziyat yuzaga kelmagan bo'lsa-da, "Tolibon 2.0" hukumatining diniy boshqaruv uslubi, qabul qilayotgan qarorlari, uning ba'zi tuzilmalari va xalqaro terrorchi guruhlar o'rtasidagi muntazam aloqalar davom etayotganligi hamda keltirayotgan bayonotlari mintaqaviy xavfsizlikka yaratishi mumkin bo'lgan ehtimoliy tahlilarni e'tibordan chetda qoldirmaslikni taqozo etadi. Nazarimizda, bunday ehtimoliy chaqiriqlar o'zida ham an'anaviy, ham noodatiy xavflarning birikmasini aks ettiradi.

#### **METHODS/ МЕТОДЫ / TADQIQOTNING USULLARI**

Ushbu maqolada tizimli-funksional tahlil, tarixiylik, ivalent va qiyosiy-siyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Tadqiqotning obyekti sifatida Afg'onistondagi Qo'shtepa kanali va uning Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligiga ta'siri olingan va mintaqaviy xavfsizlikka tahdid tug'diruvchi suv bilan bog'liq boshqa ehtimoliy jarayonlar ham o'rganiladi.



## RESULTS/ РЕЗУЛЬТАТЫ/ NATIJALAR

Qo'shtepa kanalining qurilishi Markaziy Osiyodagi suv taqisligi va suvga bo'lgan ehtiyojlarni yanada ortishiga sabab bo'lib qo'shnilar o'rtasidagi munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Uning oqibatlari nafaqat ekologik, balki ijtimoiy-iqtisodiy va xavfsizlik masalalarida ham ko'zga tashlanishi mumkin. Masalan: "Global Water Intelligence" jurnali ma'lumotiga ko'ra, suv bozorida bir yilda aylanadigan pul miqdori butun dunyo bo'yicha harbiy maqsadlar uchun sarflanayotgan mablag'ga yaqinlashib qolgannini hisobga olsak masala yanada oydinlashadi.

Markaziy Osiyodagi suv bilan bog'liq xavotirlarni dunyoning eng katta ko'llari turkumiga kiruvchi Orolning qurib borishi va xalqaro darajada e'tirof etilishi bilan anglash mumkin. Orolning qolgan qismlarini saqlab qolish favqulodda dolzarb va ahamiyatli sanaladi.

Shunday sharoitda "Tolibon 2.0" hukumati tomonidan qurilayotgan Qo'shtepa kanali loyihasi Markaziy Osiyodagi suv resurslari muvozanatiga katta ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Shu boisdan, Markaziy Osiyo mintaqasidagi suv resurslari taqsimotiga Afg'oniston tomonini ham keng jalb etish, ko'p tomonlama muzokaralar olib borish va manfaatli kelishuvlarga erishish suv nizolarini oldini olishga xizmat qiladi.

**ASOSIY QISM.** Suv omili kelajak masalasidir. Yer kurrasidagi suvning 96 foizini okean va dengizlar sho'r suvi, atigi 3 foizini chuchuk suv zaxirasi tashkil etadi. Yaqin o'n yil ichida dunyodagi chuchuk suv zaxirasi yana ikki barobar qisqarishi mumkin. Hozir jahondagi 80 mamlakatda chuchuk suv tanqis, ikki milliard aholi chuchuk suv yetishmasligidan aziyat chekmoqda. Geosiyosiy ahamiyati katta bo'lgan Markaziy Osiyo aholisi tez o'sib borayotgan va, ayni paytda, suv zaxiralari cheklangan mintaqadir. Modomiki, suv muammosi globallashib borar ekan, demak suv geosiyosati haqida so'z yuritishga jiddiy asoslar talaygina.

Suv masalalariga ixtisoslashgan dunyoning ko'plab tillarida nashr etiladigan "Global Water Intelligence" jurnali ma'lumotiga ko'ra, suv bozorida bir yilda aylanadigan pul miqdori butun dunyo bo'yicha harbiy maqsadlar uchun sarflanayotgan mablag'ga yaqinlashib qolgan. Bu hali jarayonning boshlanishi. 2006-yili Buyuk Britaniya Mudofaa vazirligi davlat rahbariyatiga murojaat qilib, butun Yer shari bo'ylab ichimlik suvi tanqisligidan ro'y berishi mumkin bo'lgan urushga tayyor turishga chaqirgan edi. O'sha paytdagi Mudofaa vaziri Jon Reyding fikricha, bunday muhoraba bir vaqtning o'zida dunyoning bir necha mintaqasini qamrab oladi[3].

Markaziy Osiyodagi suv bilan bog'liq vaziyat esa kutilgandan ham xavotirli. Dunyoning eng katta ko'llari turkumiga kiruvchi Orolning yillar davomida qurishiga sabab bo'luvchi omillar turli-tuman bo'lsa ham, lekin fojia ko'lami



allaqachon xalqaro darajaga chiqib ulgurgani sababli, muammoni keltirib chiqargan sabablardan ko‘ra, Orolning qolgan qismlarini saqlab qolish favqulodda dolzarb va ahamiyatli sanaladi. Chunki, Orolning ekologik falokati oqibatlarini butun mintaqa xalqlari hayotiga birdek daxldor muammo sanaladi.

Shunday sharoitda “Tolibon 2.0” hukumati tomonidan qurilayotgan Qo‘sh-tepa kanali loyihasi Markaziy Osiyodagi suv resurslari muvozanatiga katta ta‘sir ko‘rsatmay qolmaydi. 2022-yil mart oyidan boshlab, “Tolibon 2.0” hukumati Amudaryo o‘zanida Qo‘sh-tepa kanali loyihasini qurishni boshladi.

Kanalning uzunligi 285 km, eni 100 metr, chuqurligi 8 metrni tashkil etib, u Afg‘oniston shimolining taxminan 550 ming gektar yerlarini sug‘orishga mo‘ljallangan. “Tolibon 2.0” hukumatining rasmiylari ma‘lumotlariga qaraganda kanalning qurilish ishlari 2028-yilda yakunlanishi rejalashtirilgan.



Mutaxassislar baholashlariga ko‘ra, 2050-yilga bormay Markaziy Osiyoda turli sabablar tufayli “suv urushi” boshlanishi mumkin. Bu esa mintaqa uchun yirik tahdid omiliga aylanishini istisno etib bo‘lmaydi. Bir yilda jon boshiga 1000m<sup>3</sup> (ya‘ni minimal ehtiyojlarni qondirish uchun zarur) to‘g‘ri keladigan davlatlar orasida Markaziy Osiyoning Turkmaniston (206m<sup>3</sup>) va O‘zbekiston (625m<sup>3</sup>) kabi davlatlari bor[4]. Jahon resurslari institutining tadqiqotlariga ko‘ra, Turkmaniston va O‘zbekiston suv bilan eng kam ta‘minlangan dunyodagi 13 ta mamlakatlar qatoriga kiradi. Shu sababdan ham “Tolibon 2.0” hukumatining Qo‘sh-tepa kanali loyihasi eng avvalo, Amudaryo quyi oqimida joylashgan O‘zbekiston va Turkmaniston davlatlari uchun jiddiy suv tanqisligi muammosini keltirib chiqaradi. Bu kanalning to‘liq ishga tushishi ayniqsa O‘zbekiston uchun iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy va ehtimolan xavfsizlik bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqarishi, shuningdek, Markaziy Osiyoda mintaqasidagi suvdan foydalanish tartibini o‘zgartirishi mumkin. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Qo‘sh-tepa” kanali loyihasi haqida to‘xtalib, “mohiyat-e‘tiboriga ko‘ra, mintaqamizda suvdan foydalanish jarayonida bizning mamlakatlarimiz bilan hech qanday majburiyat asosida bog‘lanmagan yangi ishtirokchi paydo bo‘ldi. Afg‘on tomoni kanalni qurish bo‘yicha faol ish olib borayotganini yaxshi bilasiz. Uning ishga tushirilishi Markaziy Osiyodagi suvdan foydalanish tartibi va muvozanatini tubdan o‘zgartirib yuborishi mumkin”[5], deb ta‘kidlagan edi.

Tabiat resurslari va iqtisodiyot bo‘yicha xalqaro mutaxassis Riyeks Boschning quyidagi fikrlari vaziyatni yanada aniqroq ifoda etishda yordam beradi: “Qo‘sh-tepa kanalining qurilishi – juda qiziq mavzu. Birinchi bo‘lib 1950-yilda mazkur loyihaga inglizlar, keyinroq ruslar qiziqib, uning ustida ishlab ham



ko‘rishgandi. So‘ng oxirgi nuqtada amerikaliklar bir “siljitib ko‘rmoqchi” bo‘lishdi. “Tolibon” kanalga Amudaryo suvining 20 foizini yuborishni rejalashtirgan. Agar shunday qilinsa, Xorazm va Qoraqalpog‘iston Amudaryodan foydalanishni 50 foizga qisqartirishi kerak bo‘ladi. Bir o‘ylab qaraganda, bunga samaradorlikni oshirish orqali qisman erishish mumkin, ammo fermerlar uchun yaxshigina tanqislik yuzaga keladi. Nima bo‘lganda ham bunda O‘zbekiston aziyat chekadi. Yuqorida aytganimdek, kanal qurish oson, sug‘orish tizimini qurish esa 10 barobar qiyin. Tolibon hukumati buni qila oladimi yoki yo‘q, javob olinishi kerak bo‘lgan eng katta savol ham shu. Bu qurilishning asosida inshootlarini barpo qilish metodologiyasi turadi. Eshitilishi juda oddiy, ya‘ni shunchaki qazish kerak deb hisoblaysiz. Ammo bunda suv miqdorini aniqlash uchun sug‘orish sxemasi juda aniq va batafsil ishlab chiqilishi kerak. Bu esa o‘ylanganidan ancha murakkabroq. “Tolibon” qiyinchiliklarga duch keladi, deb o‘ylayman. Aytaylik, sug‘orish uchun qatorlarda suv ochib qo‘yiladi, har bir qatorga teng ravishda suv taqsimlay olish juda qiyin. Bularning hammasini boshqarish oson emas, toliblar kanal qurishdan ko‘ra, uni ishlata olishiga ko‘proq kuch sarflashi kerak bo‘ladi. Agar bu tizim ishlab chiqilmasa, kanal bo‘ylab kamida 30-40 foiz suv isrof bo‘lishi mumkin. O‘zbekiston, Turkmanistonda har bir kub suvning narxi 1,60 dollardan 1,20-1,30 dollargacha hisoblanadi. Lekin asl qiymati 16 dollar, ya‘ni hozirgi narxidan 10-15 baravar qimmatroq. Yuqoridagi loyiha sabab suvning narxi yanayam keskin oshishi mumkin”[6].

#### **DISCUSSION/ ОБСУЖДЕНИЕ/МУХОКАМА**

O‘zbekiston bugungi kunda Qo‘sh tepa kanali bo‘yicha afg‘on xalqining Amudaryo suv havzasidan foydalanishga haqqi mavjud ekanligi, uning qurilishiga to‘sqinlik qilmasligi, biroq suv resurslarining aniq taqsimotini huquqiy jihatdan rasmiylashtirish bo‘yicha diplomatik muzokaralar olib borish tanlovini ilgari surmoqda. Hattoki, O‘zbekiston kanalning texnik qurilish jarayonlarida ishtirok etishga tayyorligini ham ma‘lum qilgan. Sharqshunos-afg‘onshunos ekspert Aleksandr Knyazev Qo‘sh tepa kanalining qurilishi O‘zbekiston uchun o‘z xavfsizligini ta‘minlovchi omildir, deb hisoblaydi. Uning fikricha, Afg‘onistonda qurilayotgan Qo‘sh tepa kanali bo‘yicha O‘zbekistonning yondashuvi qarama-qarshilik xususiyatida emasligini eng to‘g‘ri yo‘l deb baholab, ushbu kanal O‘zbekiston uchun nozik masala bo‘lishiga qaramay, o‘z xavfsizligini ta‘minlashga yordam berishi mumkin. Uning yozishicha, Qo‘sh tepa kanali ishga tushishi bilan Afg‘oniston shimolidagi qishloq xo‘jaligi rivojlanib, bu chegaradosh viloyatlardagi vaziyatni barqarorlashtirishga yordam beradi. Shuningdek, A.Knyazev Markaziy Osiyodagi suv resurslarini boshqarishdagi kelgusi tashabbuslarda Afg‘onistonning mumkin bo‘lgan talablarini hisobga olish kerakligi, bunday talablarni hisobga olishning to‘g‘ri yo‘li Amudaryo bo‘yida joylashgan barcha davlatlar ishtirokida yangi mintaqaviy muzokaralar o‘tkazish



va o‘zaro maqbul yechimlarni izlash lozimligini qayd etgan[7]. Ammo, bizning fikri ojizimizcha, “Tolibon” Qo‘sh tepa kanalini aynan Afg‘oniston shimolidagi qishloq xo‘jaligini rivojlantirish maqsadida qurayotganiga turli shubhalar bildirish mumkin. Bunday maqsad bo‘lganda shimoldagi qo‘shnilar bilan avvalroq kelishib ish tutilar, Amudaryo quyi havzasidagi davlatlar hamkorlikka taklif etilar edi, degan asosli savollarni o‘rtaga tashlash mumkin. Biroq, bunday bo‘lmadi. Bundan tashqari, “Tolibon” suv omilidan qo‘shnilari Eron (Helmand daryosi) va Pokistonga (Kunar daryosi) qarshi siyosiy tahdid quroli sifatida foydalanganini ham unutmash lozim. Qolaversa, qisqa muddat ichida Qo‘sh tepa kanali kabi yirik loyihani qurishni moliyalashtirish tashqaridan yordam berilmasdan amalga oshishi haqiqatdan yiroq, degan xulosa qilishga undaydi.

Tashqi kuchlarning Qo‘sh tepa kanali loyihasi ortida turgani haqidagi bahs-munozaralar toki ushbu kanal qurilib foydalanishga topshirilguniga qadar davom etadi. Qiziq bir jihati shundaki, Afg‘oniston shimolida Amudaryo quyi havzasidan kanal o‘tkazish loyihasi inglizlar tomonidan boshlanib, sovet-afg‘on urushi yillarida Moskva, “terrorizmga qarshi urush” paytida esa amerikaliklar tomonidan ishlab chiqilgan edi. Aniqroq aytganda, ushbu kanalning yaqin va uzoq o‘tmishi uning tashqi kuchlarning loyihasi ekanligidan darak etadi. So‘nggi marta 2018-yilda Afg‘onistonning sobiq prezidenti Ashraf G‘ani davrida rasmiy Kobul AQShning USAID kompaniyasi bilan Amudaryo suvlarini burish va qishloq xo‘jaligi yerlarining ulkan yangi maydonlarini ochish uchun yangi Qo‘sh tepa kanalining texnik-iqtisodiy asoslanishi bo‘yicha shartnoma imzoladi. Afg‘on mutaxassislariga ko‘ra, eng qiziq jihati kanal qurilishi aslida 2021-yilning birinchi yarmida, ya‘ni Ashraf G‘ani hukumatining qulashidan oldinroq boshlangan va o‘sha vaqtda qazilgan hududlar 7 km masofani tashkil etgan[8]. Keyinchalik, loyiha bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib borish uchun shtab-kvartirasi AQShda joylashgan AACS Consulting va AECOM Amerika konsalting firmalari yollandi. 2019-yil apreldagi baholashlarga ko‘ra, Qo‘sh tepa kanalining qurilish qiymati 1,5 mlrd dollarni tashkil etgan[9]. 2024-yil noyabrda “Известия” nashrida chop etilgan maqolada ham USAID Qo‘sh tepa kanalini maxfiy tarzda moliyalashtirgani qayd etiladi. Ma‘lumotlarga ko‘ra, kanalning 80 foizi qurib bitkazilgan. Qurilish jiddiy ekologik va geosiyosiy muammolarni keltirib chiqaradi. Bu nazoratsiz amalga oshirilmoqda, suv kanali ibtidoiy tarzda qazilmoqda, bu sug‘orish tizimining buzilishi va keyingi ekologik oqibatlarga olib kelishi mumkin. Markaziy Osiyo uchun hayotiy ahamiyatga ega bo‘lgan Amudaryodan suv oqimining burilishi Turkmaniston va O‘zbekistonda suv inqiroziga olib keladi. Nashrda yozilishicha, USAIDning ushbu loyihani moliyalashtirishi Markaziy Osiyodagi vaziyatni beqarorlashtirish va Kobul ustidan ta‘sir o‘tkazish uchun mo‘ljallangan bo‘lishi mumkin edi[10]. Ushbu ma‘lumotlar Amerika “Tolibon” harakati bilan o‘tkazilgan ko‘p raundlik maxfiy muzokaralarning ma‘lum bir



qismida Qo'shtepa kanali loyihasini "toliblar" vositasida davom ettirish ijodkori bo'lgan, degan taxminiy xulosani ilgari surishga imkon beradi.

Ba'zi tahlilchilar Xitoy va "Tolibon 2.0" o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning faollashuviga e'tibor qaratib, Qo'shtepa kanalining moliyalashtirilishida Pekinning ham "qo'li" mavjud, degan taxminlarni ilgari surmoqda. Bunga Xitoyning Shinjon-Markaziy Osiyo neft va gaz kompaniyasi Afg'oniston Muvaqqat hukumati bilan Amudaryo havzasidan neft qazib olish bo'yicha imzolagan shartnomasi misol qilib keltirilmoqda. Ammo, bizning fikrimizga ko'ra, Xitoy bu loyihaning yaratilishi va moliyalashtirilishida asosiy o'yinchi bo'la olmas edi. E'tibor qaratsak, "toliblar"ning suvni siyosiy ta'sir vositasi sifatida ko'rsatishida Eron va Pokiston qo'shni davlatlari bilan turli nizolar kelib chiqqani, eng kamida, Xitoy variantini Qo'shtepa kanali loyihasi bilan yaqindan bog'lashga imkon bermaydi. Chunki, Xitoy mintaqaning ushbu ikki muhim davlati bilan juda yaqin munosabatlarga ega va bu munosabatlarni sovuqlashtirish yoki sekinlashtirish niyatida emas. Xuddi shu singari Xitoyning Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlari ham yuqori sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Goh-gohida "Xitoy Qo'shtepa kanali orqali Markaziy Osiyoga ta'sir ko'rsatishni rejalashtirgan", deb aytilgan taxminlarga kelsak, Xitoyning mintaqadagi ta'sir qilish vositalari Qo'shtepa kanalisiz ham yetarli darajada mavjud. Biroq, ta'kidlash o'rinliki, xitoylik investorlarning Afg'onistonda serqatnov bo'lib turishi va "Tolibon 2.0" hukumati bilan turli investitsiya shartnomalarini imzolashi, natijada tushgan "sarmoyalar" "toliblar" rahbariyati tomonidan Qo'shtepa kanalini moliyalashtirishga yo'naltirilishi ehtimoldan xoli emas.

"Tolibon 2.0" hukumatining suv omilidan foydalanib, qo'shni davlatlarga ta'sir qilish imkoniyatlarini kengaytirib borishi qo'shni davlatlarni ushbu hukumat bilan aloqalarini saqlab turishga, istiqbolda esa "toliblar" hukumatining legitimligini tan olishga undaydi. Bu esa Qo'shtepa kanalini iqtisodiy emas, aksincha ko'proq siyosiy loyiha ekanligini anglatadi. Nazarimizda, suv omili bilan bog'liq yana bir muhim masalaga e'tibor qaratishni o'rinli, deb hisoblaymiz. Garchi Turkmaniston hukumati "Tolibon 2.0" hukumati bilan hamkorlik aloqalaridan iqtisodiy foyda olishi tufayli Qo'shtepa kanaliga nisbatan rasman va jiddiy munosabat bildirmayotgan bo'lsa-da, "Tolibon" suv masalasi bo'yicha yana bir muhim ta'sirni ishga tushirishini inkor etib bo'lmaydi. Agarda Afg'onistonning tog'li hududlaridan boshlanuvchi, Harirud daryosi havzasi tarkibiga kiruvchi Murg'ob va Tejen daryosining quyi oqimlarida "toliblar" tomonidan yirik





suv omborlari qurilsa yoki suv yo'nalishini o'zgartirishga qaratilgan qandaydir loyihalar ishlab chiqilsa, Turkmaniston suv ta'minotida juda katta qiyinchilikka duch keladi.

Ma'lumki, Murg'ob daryosi Afg'onistonning tog'li hududlaridagi o'zaro tutashgan ko'llardan boshlanib, Turkmanistonning Mari shahri yonida Amudaryodan keluvchi Qoraqum kanali bilan qo'shiladi va kanalga aylanadi. Tejen daryosi esa Markaziy Afg'onistonning 3000 metr balandlikdagi Kohi-Bobo tog'laridan oqib tushadi. Hirot shahriga yetib kelgach, keng o'zan oladi va sokin oqa boshlaydi. So'ng Afg'oniston va Eron, Eron va Turkmaniston o'rtasida tabiiy chegara vazifasini bajaradi. Turkmaniston hududiga o'tgach, Qoraqum kanali bilan tutashadi. Uning yirik irmog'i bo'lgan Jomrudning Tejenga quyilish joyida dunyodagi eng balandlikda qurilgan Jomrud minorasi joylashgan. Daryoning yuqori oqimida Afg'oniston hududida Salma suv ombori, Turkmanistonning Tejen shahri atrofida tejen va Xarxor suv omborlari, Eron va Turkmaniston chegara tumanida Eron-Turkmaniston do'stlik to'g'oni va suv ombori barpo etilgan[11]. 2011-yilda AQSh Senatining Tashqi aloqalar qo'mitasi tomonidan e'lon qilingan "Suv urushlaridan qochish: suv tanqisligi va Markaziy Osiyoning Afg'oniston va Pokistonda barqarorlik uchun ahamiyatining ortib borishi" nomli hisobotida Afg'oniston va unga qo'shni davlatlar o'rtasida transchegaraviy suvlar bo'yicha bahslar kuchayib borishi haqida ogohlantirilgan. Shuningdek, Norvegiya Xalqaro aloqalar instituti (NUPI) 2008-yilda Afg'onistonda transchegaraviy suvlar bo'yicha suv infratuzilmasini rivojlantirish mintaqadagi kelishmovchiliklarga sabab bo'luvchi va xavfsizlikka ta'sir etuvchi muhim omili ekanligi haqida tahlil etib, Xitoy, Hindiston, Eron, Pokiston, Rossiya va AQSh o'rtasidagi geosiyosiy raqobat Markaziy Osiyodagi suv resurslari bo'yicha raqobat bilan bir qatorda jiddiy muammolarni keltirib chiqarishini taxmin qilishgan. NUPIning ma'lumotlariga ko'ra, binobarin, transchegaraviy daryolarning siyosiy xususiyat kasb etishi mintaqada vaziyatni yanada murakkablashib borishiga olib keladi[12]. Boshqacha aytganda, Harirud daryosi quyi havzasidan foydalanish bo'yicha kelishmovchiliklar nafaqat Turkmaniston, balki Eron uchun ham yangi muammolar sun'iy tarzda yaratilishi ehtimolidan dalolat beradi.

#### **CONCLUSION/ ЗАКЛЮЧЕНИЕ/XULOSA**

Qo'shtepa kanalining qurilishi istiqbolda Markaziy Osiyodagi suv resurslari muvozanatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Uning oqibatlari nafaqat ekologik, balki ijtimoiy-iqtisodiy va xavfsizlik masalalarida ham ko'zga tashlanishi mumkin. Shu boisdan, Markaziy Osiyo mintaqasidagi suv resurslari taqsimotiga Afg'oniston tomonini ham keng jalb etish, ko'p tomonlama muzokaralar olib borish va manfaatli kelishuvlarga erishish suv nizolarini oldini olishga xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Alimov R.M. Central Asia: Common Interests. – T.: Sharq, 2005. – P.295.
2. Ubaydullayeva S.F. Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik o‘zaro bog‘liqligi tizimi shakllanishining muammo va istiqbollari. Siyosiy fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi. – T.: 2023. – B.185.
3. Эргашев А., Жумакул Д. Сув жанги ёхуд геосиёсий курашлар. Тафаккур журнали, 2013 йил 1-сон.
4. Юнусов Х., Маматова З. Трансчегаравий дарёлар ва йирик тўғонлар: тахдидлар, талофотлар ва хавфсизлик чоралари. – Т.: “Янги аср авлоди”, 2015. – Б.12.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi ta‘sischi davlatlari rahbarlari kengashi majlisidagi nutqi // O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sahifasi, 15.09.2023. <https://president.uz/oz/lists/view/6662>
6. “Толибон” канча сув йўқотилишини ҳисобга олмаяпти” – хорижий эксперт Қўштепа канали қурилиши ҳақида // kun.uz, 04.06.2024. <https://kun.uz/kr/88634254>
7. Князев А. Будущее канала Куш-тепа. Частное мнение // Steyka.uz, 19 октября 2024. <https://t.me/againstterror/12890>
8. Kuchins A., Aidarkhanova E., Sadid N., and Barakzai Z. Afghanistan’s Qoshtepa Canal and Water Security in Central Asia // Center for the National Interest, November 2024. – P.23.
9. Сирожидинов Камолидин. Чем грозит афганский канал Хуш-Тепа Таджикистану? // Афганистан и соседи. Научно-информационный центр Межгосударственной координационной водохозяйственной комиссии Центральной Азии. – Ташкент, 2023. – С.31-32.
10. Калашян Альберт. Деньги утекли: USAID тайно финансировало строительство водоканала при талибах // Известия, 13 марта 2025. <https://iz.ru/1853052/albert-kalasan/dengi-utekli-usaid-taino-finansirovalo-stroitelstvo-vodokanala-pri-talibah>
11. Юнусов Х., Маматова З. Трансчегаравий дарёлар ва йирик тўғонлар: тахдидлар, талофотлар ва хавфсизлик чоралари. – Т.: “Янги аср авлоди”, 2015. – Б.109.
12. Mohsen Nagheebby, Mehdi Piri D., Michael Faure. The Legitimacy of Dam Development in International Watercourses: A Case Study of the Harirud River Basin // Transnational Environmental Law, 8:2 (2019), Cambridge University Press. – P.255.